

HOJI MUINNING “KATTAQO‘RG‘ON XOTIRALARI” SAFARNOMASI
САФАРНАМЕ ХАДЖИ МУИНА "ВОСПОМИНАНИЯ О КАТТАКУРГОНЕ"
TRAVELOGUE OF HADJI MUIN "MEMORY OF KATTAKURGON"

Ne'matova Hulkar Abdulbakiyevna¹

¹Ne'matova Hulkar Abdulbakiyevna

– Jizzax davlat pedagogika universiteti, O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada millat taraqqiysi uchun kurashgan Hoji Muinning “Kattaqo‘rg‘on xotiralari” deb nomlangan safarnomasining o‘ziga xos jihatlari, kitobxonning diqqatini jalb qiladigan ma‘lumotlar, xususan, Hoji Muinning Kattaqo‘rg‘on sayohatida ko‘rgan, o‘zi shohid bo‘lgan voqealilar, millat taraqqiysini orqaga tortayotgan vaziyatlar va ularning har biriga muallifning sub’yektiv bahosi haqidagi fikrlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, jadid safarnomalarida ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining qiyosiy va solishtirish usulida tartib qilinganligi, jadid safarnomalarida muallif sayohat mavzusini o‘z ijodiy niyatiga ko‘ra badiiy usul sifatida qo‘llaganligi xususida fikr yuritilgan.

Аннотации

В статье рассматриваются особенности путеводителя Хаджи Муина, боровшегося за развитие нации, под названием «Воспоминания о Каттакургане», сведения, привлекающие внимание читателя, в частности, реалии, которые Хаджи Муин видел и свидетелем которых был во время своего поезда в Каттакурган, в том числе состояние опустевшего читального зала в Каттакургане, сдерживающего прогресс нации, анализируются ситуации и мнения о субъективной оценке автором каждой из них. Также считается, что идеи просвещения в современных сафарномах выстроены в сравнительно-сопоставительном методе, и что автор использовал тему путешествия как художественный прием по своему творческому замыслу в современных сафарномах.

Abstract

The article discusses the features of the guidebook of Hadji Muin, who fought for the development of the nation, called "Memories of Kattakurgan", information that attracts the reader's attention, in particular, the realities that Hadji Muin saw and witnessed during his trip to Kattakurgan, including the state of the empty reading room in Kattakurgan, holding back the progress of the nation, the situations and opinions on the author's subjective assessment of each of them are analyzed. It is also believed that the ideas of enlightenment in modern travelogues are built in a comparative method, and that the author used the theme of travel as an artistic device according to his creative concept in modern travelogues.

Kalit so‘zlar: shahar dumasi, jadid maktabi, qiroatxona, muallim, hajviya, millat tarixi.

Ключевые слова: городская дума, школа Джадидов, читальня, учитель, комедия, история нации.

Key words: City Duma, Jadid's school, reading room, teacher, comedy, nation's history.

KIRISH

Dunyodan xabardorlik millat billurlanishining bir omili ekanligini yaxshi bilgan ma‘rifatparvar sayyohlar tomonidan ko‘z bilan ko‘rilgan yo‘l taassurotlari, safardagi kechmishlar ong bilan idrok etilib qalbgga, qalbdan esa qog‘ozga ko‘chdi. Shu tariqa ijtimoiy-ma‘rifiy maqsad bilan bir qatorda, publitsistik, badiiy-estetik, falsafiy, siyosiy maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan bir qator sayohatnomalar vujudga keldi.

Umumtaraqqiyotdan uzilib qolish, o‘z qobig‘iga o‘ralib yashash oqibatini yaxshi bilgan ma‘rifatparvar jadidlar dunyo xabardorlikning o‘zlikni teran tushunib etishning, o‘z-o‘zini isloh qilishning asosi ekanligini anglab etdilar. Adabiyotshunos olim, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov bu davrni bir so‘z bilan “billurlashish”, ya‘ni millatning billurlanishi deb atadi, jumladan, u shunday yozadi: “billurlashish” bizda ertaroq, XX asr boshlarida kurtaklangan va g‘oyatda tezlashgan edi... Bizda millatni anglash milliy tuyg‘ularining kuchli tanqididan boshlandi. Millat tanqidi bilan maydonga chiqqan ziyolilarimizning hammasi dunyo mamlakatlarini ko‘rib keldilar. Jahonda borayotgan shiddatli o‘zgarishlardan xabardor bo‘ldilar. O‘z hollari va ahvollariga nazar soldilar... Bir millatning ahvoli boshqa millat ahvoliga qiyoslanganda yaxshi bilinadi... Solishtirilganda, ma‘rifat yuzasidan, oriflik, xabardorlik va hayot tarzining darajasi yuzasidan solishtirildi” [3.10]. Shuning natijasida XX asrning birinchi choragida ham jadid adiblarimiz

tomonidan aniq belgilangan yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan safar xotiralari: Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" (1914), Abdulla Avloniyning "Afg'on sayohati", Cho'lponning "Vayronalar orasidan" (Andijon–O'sh–Jalolobod) (1924) kabilar yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Safarnomalar tarxi-tuzilishiga e'tibor bersak, ma'rifatparvar ijodkorlar: Furqat, Muqimiy an'analaridan farqli holatda jadid adiblari o'z safarnomalarini nasriy yo'lda yaratganliklarini ko'ramiz. Negaki bu yo'l ularga sayohatlari davomida xalq turmushining turli jabhalariga chuqurroq kirib borish, hayotiy muammolarga teranroq nazar tashlash, ularni o'rganish, tadqiq va tahlil etish, munosabat va xulosa bildirish, o'z nuqtai nazarini, pozitsiyasini namoyon etish kabi imkoniyatlarni berdi.

Millatning billurlanishiga xizmat qilgan jadid safarnomalarining mualliflaridan biri Behbudiy o'zining "Qasdi safar"ida: "Dengiz oynadek shaffof va sokin, havo latif, yalg'uz ostimizda suvu ustimizda Buxorodur", – deb taassurotlarini bo'lishar ekan, "Yerdagilarni Sizga musaxxar qildim – Ollohning amri ila marokibi baqriya dengizga joriy bo'lur" mazmunidagi oyatlar mulohaza qilinur" [4;69], –deya Qur'oni karimda safar borasida tayin etilgan oyatlarni eslatadi. Tarixchi jurnalist bu haqda shunday mulohazalarini bildirgan edi: "1914 yilning 19 mayida Behbudiy yana bir bor arab mamlakatlariga sayohatga jo'naydi. Safardan olgan taassurotlarini o'z jurnali – "Oyna"da "Qasdi safar" sarlavhasi ostida berib boradi. Adabiyotshunoslar "xotiralar"ni adabiyotimizdagi an'anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidagi o'ziga xos namunasi deb ta'rifladilar. "Xotiralar"dagi ma'rifiy ruh, iztirobga to'la fikr-mulohazalar o'quvchini befarq qoldirmaydi. Behbudiy qalbini o'rtagan bu dard erk va ma'rifat edi" [5].

O'tgan asr boshidagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan ma'rifatparvarlar orasida Behbudiyning sadoqatli shogirdlaridan Hoji Muinning ham o'z o'rnini bor. Millat taraqqiysi uchun kurashgan Hoji Muin o'qituvchilik qildi, she'rlar bitdi, pyesalar yozdi, hajviyalar yaratdi. Hoji Muinning adabiy merosidan hajman kichik bo'lsa-da, ammo mazmun-mohiyatiga ko'ra salmoqli "Kattaqo'rg'on xotiralari" deb nomlangan safarnomaning ham o'rin olganligi e'tiborga loyiq.

Jahon adabiyotida biror mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotini o'rganib unga munosabat bildirish, o'rnini bilan tanqidiy fikrlar aytish uchun muallifga xorijlik sayyoh obrazi qo'l kelishi soha lug'atida ko'plab qayd etilgan. "Yo'l ocherki, sayohatnoma janri tipologiyasining shakllanishida yana bir muhim jihatni ta'kidlash lozimki, XIX asr deyarli (safarnoma, esse, ocherk, memuarlar bitta umumiy nom bilan ataluvchi belletristikaga mansub adabiy asarlar hisoblanadi, izoh bizniki – N.H.) barcha rus belletristlari o'z sayohatnomalariga yengil, feleton shaklini berish uchun sayohatlari davomida o'zlariga hamroh-yo'ldosh "tanlaydilar". Ular vagonda tasodifiy uchrashib qolgan suhbatdosh yoki oldindan tanish muxbir yoki "bilgich odam" va hokazo bo'lishi mumkin. Odatga ko'ra, suhbatdoshlardan biri xorijga birinchi chiqishi bo'lsa, yana biri tajribali sayohatchi, yana biri bizning chegaralarga birinchi qadamini qo'yayotgan bo'lsa, birlari o'sha yurtlarda tug'ilgan. Ana shu holatda dialog yuzaga keladi, fikrlar almashinadi, qarashlar, nuqtai nazarlar to'qnashadi, ayrim konfliktlilik – bayon hayotiy, belletristiklik kasb etadi. Dialoglar asosiy chiziq bo'ylab harakatlanmaydi, "savol-javob berdi" shartisiz, ular dramaturglik shaklida beriladi. Shu tariqa sahna yuzaga keladi" [7;124], – deydi rus adabiyotshunosi Olga Skibina.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiyotning bir qadar muhim vazifalari borki, ularni safarnomalar misolida ham o'ziga xos tarzda talqin qilish imkonlari paydo bo'ladi. Demak, safarnomalarning ham xuddi adabiyotda, to'g'rirog'i, badiiy adabiyotda bo'lgani kabi tarbiyaviy, estetik va ma'rifiy vazifalari ham mavjud.

Sayohatnomalar shunisi bilan ahamiyatliki, ular real voqealarga asoslanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'qilishidanoq undan jo'shqin hayot nafasi ufurib turadi. Tasavvurimizda tasvirlarni jonlantirish uchun ko'p ham qiynalmaydi, negaki aslicha tasvirlash orqali barchasiga erishib qo'ya qoladi. Undagi birdan bir to'g'riso'zlik va qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirni namoyon etishdagi xayrixohlik hissini o'rniga qo'ya bilsa bas. Yozuvchi–sayyoh o'z ko'zi bilan ko'rgan-kechirgan, his etgan voqeliklarga shaxsiy munosabatini bildiradi. Sevinch va qayg'usi, hatto qo'rquvi ham ro'yi-rost ifodalanadi.

Odatda har bir sayyoh o'zi ko'zlagan maqsad ila safarga chiqqan bo'lib, "topshiriq"larni ado etish asnosida kunlik, haftalik, ba'zan oylik hisobotlarni yozib boradi. Notanish hududning dastlab

ADABIYOTSHUNOSLIK

ko'zga ko'rinarli jihatlari, so'ngra sinchkovlik nazari ila boshqa tomonlarini o'rganib boradi. Bunda sayyoh o'z dunyoqarashi va mentalitetidan kelib chiqib, o'zining kelgan muhiti bilan solishtirib, taqqoslar ekan, moddiy-ma'naviy meros, urf-odat va an'ana, qolaversa, sodir bo'lajak har qanday voqeilik ustidan o'zgacha xulosalarga ega bo'la boshlaydi.

Hoji Muin safarnomasida ham asosan, jadid ijodkor nigohini his qilamiz, jadid muallif qalami yo'naltirilgan sohalar, muammolar ham o'quvchi uchun yangilik emas. Ammo Hoji Muin safarnomasida o'quvchining diqqatini jalb qiladigan shunday haqli e'tirof borki, bu o'n yildan beri Kattaqo'rg'onda hokim bo'lib yerli aholiga hamisha insof va adolat doirasida muomala qilib kelgan va shu sababli ham o'n birinchi marta saylovda Kattaqo'rg'on shahar dumasiga raislikka saylangan rus polkovnigi Royas haqidagi ma'lumotdir.

Shahar dumasiga o'tkazilgan saylov tafsilotlariga qiziqqan Hoji Muin saylovda xotin-qizlar ishtirokiga ijozat berilmaganiga e'tiroz bildirib: "... xotinlar ham inson bolalari edi, ularning ham bu saylovda ishtirok etmoqqa haqlari bor" [1;70],- deydi. Ayni paytda polkovnik Royas haqidagi xabarni eshitib mamnun bo'ladi, bu mamnunlikning sababini shunday izohlaydi: "Men 6 yil burun Kattaqo'rg'onga muallim bo'lib borg'onimda boshlab shul hokimning qoshig'a kirgan edim. Hokim (polkovnik Royas — H.N.) mening kimligimni, nima uchun kelganligimni so'rab javobni olg'ondan so'ng shu mazmunda nasihat va ta'limot berganligi hanuz esimda bor: "Eshitamanki, Samarqandda mullo Abdulqodir degan bir muallif usuli jadid maktabi ochib bolalarni yaxshi o'qitmoqda ekan. Siz ham o'shal muallim kabi bolalarni yaxshi o'qutingiz. Bolalarg'a shunday muomala qilingizki, ular ham sizday qo'rqsunlar va ham sizni sevsunlar". Men umrimda bir rus og'zidan shunday to'g'ri va xayrixohona so'zlarni birinchi daf'a eshitganim sababli nihoyatda shodlong'on va ruhlong'on edim" [1;71], — deydi.

Millatimiz tarixi sahifalaridan "Biz yerli aholini 50 yil mobaynida taraqqiyotdan, maktabdan va rus hayotidan chetda tutib keldik" [2;14] deb g'ururlangan general-gubernator Kuropatkin, shovinistlikda undan qolishmaydigan Chernayev, Skobelev, Kaufman singari chor Rossiyasi amaldorlarining o'zbek xalqi oldidagi "xizmatlarini" yaxshi bilamiz. Ammo Hoji Muinning rus polkovnigi Royas haqidagi ma'lumotlari "Sayohatnomalar... eng ishonchli tarix yoki to'g'rirog'i, tarixlarning eng ishonchlisidir... Bu guvohliklar bizning o'z tariximizni tanishimizda cheksiz bir qimmat va ahamiyatga ega" [3;42], — degan fikrning haqligini tasdiqlaydi.

Rus amaldorining shaxsini xolislik bilan baholagan Hoji Muin mahalliy boylarimizning himmatsizligidan ozorlanadi: "Qimorimiz ham Kattaqo'rg'onga yaqinlashibdir. Narsalarni yig'ib bo'lib, vagun trizasindan boshimni chiqarib ushbu yil yomg'irsizlikdan ekin bo'lmag'on yerlarga qaramoq ila barobar turli fikrlarg'a cho'mib ketdim. Zotan yomg'ir ko'b yoqqon yillarida ham Turkistonning ekinlarindan hosil bo'lg'on donlar o'z aholisig'a zo'rg'a yetishur edi. Bu yil yomg'irsizlikdan ekinlarning barakasi uchub, o'lkamiz qimmatchilik ustinda qahatchilikka ham duchor bo'ldi. Bu jihatdan qashshoq va kambag'allar, beva va bechoralarning tirikchiligi nihoyatda og'irlashdi... Boy va qashshoq, tabiiy, har o'lka va har millatda bor. Mutamaddun millatlar orasidan boylari ko'p bo'lib, qashshoqlari ozdur. Ammo bizlarning yarim madaniy bo'lg'onimiz uchun boylarimizg'a nisbatan qashshoqlarimiz nihoyat ko'pdur. Bizlar bilan madaniy millat orasidan ko'ngilni achitaturg'on yana ayirma shuki, ular o'z qashshoqlarini kichiklikdan boshlab tarbiyat qilalar, o'qutarlar, odam qilalar. Va bu yo'l bilan o'z faqirlik tomirini qurutalar" [1;69], - deb yozadi muallif.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hoji Muin Kattaqo'rg'onda yerli aholi uchun yangi maktab ochilmaganligidan ba'zi kishilar o'z bolalarini tatarlarning muntazam maktablariga berishlariga majbur bo'layotganini afsus bilan qayd etadi. "Qiroatxonasini ham borib ko'rdim. 60-70 qadar musulmoniy, mundan ortiqroq ruscha turli risola va kitoblari va 10-15 turli musulmoniy va rusiy majmualari bor ekan. Ammo bu narsalarni o'qiyaturg'on kishi yo'q deyarlik darajada oz ko'rinadir. Sabab bo'lsa... ma'lum..." [1;72].

Hoji Muin Kattaqo'rg'ondagi bo'm-bo'sh qiroatxonaning ahvolini Samarqanddagisi bilan solishtirar ekan xalqimizning faoliyatsizligidan, loqaydligidan ko'ngli og'riydi: "Samarqandda katta bir shaharning qiroatxonai islomiyasi o'n yildan beri davom etib, o'zining kundalik mutolaachisini hanuz o'n nafarg'a yetkura olmag'onda Kattaqo'rg'on qiroatxonasi o'z mutolaachilarini nechuk ko'paytirsun?" [1;72], — deydi kinoya bilan muallif.

Hoji Muin bu holatning bosh sababini ilmsizlikda, millatning “fikri ochil’g’on” farzandlari juda kamsonlik ekanligida deb biladi va buning echimini “Har yerda qiroatxonadan burun maktablar ochilsun, fikri ochiq mutolaachilar yetishdurulsun. Undan keyin qiroatxona ochmoqqa ehtiyoj tushar” [1;72], — deb belgilaydi.

Safar davomida Hoji Muin “Marvaj ul-islom”, “Ravnaq ul-islom” kabi jamiyatlarning “yolg’uz tumtaroqli ismlar”idan boshqa e’tirof etadigan biron-ta ham xayrli ishlari yo’qligini ta’kidlar ekan, ular nomlariga yarasha musulmonlarni taraqqiy ettirmoqchi bo’lsalar, “muntazam maktablar ochsunlar, so’ngra eski madrasalardan foydasiz homiylarni chiqarib, alarning o’rnida keraklik ilm va fanlarni kirgizsunlar va bu yo’l bilan musulmonlarni maorifday bahrai ob etib, jaholatdan qutqarsunlar” [1;72], — deydi.

Safar davomida Hoji Muinni millatimiz vakillarining befarqligi qiynaydi, u afsus va nadomat bilan shitob tezligida o’zgarib borayotgan “zamong’a yarayturg’on bilgi va ongimiz yo’q edi, hurriyat ne’matlarindan keragincha istifoda qilolmay turamiz”, — deya afsuslanadi.

Hoji Muin o’z safarnomasining boshidanoq ustoz Behbudiy an’anasini qo’llab (“Padarkush”dagi boy obrazini eslang) o’z taqdiriga, atrof-olamda bo’layotgan o’zgarishlarga loqayd qaraydigan millatdoshlarini ramziy ma’noda uyquli holatda tasvirlaydiki, bu ayni Kattaqo’rg’on sayohatida ko’rgan, o’zi shohid bo’lgan, millat taraqqiyosini orqaga tortayotgan vaziyat va bunday vaziyatning boshida turgan mas’ullarga o’ziga xos ishoradir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rus olimi V.M.Guminskiyning: “Asosan bilish va o’rganishdan tashqari, qo’shimcha ravishda safarnomalar estetik, siyosiy, publitsistik, falsafiy va yana boshqa bir vazifalarni ilgari surishi mumkin” [6;314], — degan fikrlarini eslash joiz. Chunki biz tahlilga tortgan “Kattaqo’rg’on xotiralari” qatida o’quvchi intellektini boyitadigan ma’lumotlar ayni paytda rus olimi sanagan bir qator: estetik, siyosiy, falsafiy mushohadalarga yo’l ochib, safarnoma janrining boshqa bir qator vazifalarini ham yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Birgina Hoji Muinning “Kattaqo’rg’on xotiralari” nomli safarnomasi orqali jadid adabiyoti vakillarining sayohatnomalari o’ziga xos jihatlariga ega ekanligiga amin bo’ldik. Solishtirish, qiyoslash jadid safarnomalarining tayanch usuli bo’lib, ularda faktografik va analitik yondashuv yonma-yon, parallel olib borilgan. Jadid safarnomalari o’zigacha bo’lgan safarnomalarning janrxususiyatlarini, an’analarini ham mazmunan, ham shaklan boyitilgan. Shu bois jadid safarnomalarida olamga, real borliqqa munosabat masalasida muallif-sayyohning istilochilik xarakteri o’zgarayotgan jamiyat fonida yaqqol ko’zga tashlandi. Dunyoxabardorlik millat yuksalishining bir omili ekanligini yaxshi bilgan ma’rifatparvar sayyohlar safarda ko’rgan-kechirganlari, taassurotlarini ibrat sifatida bitib, ijtimoiy-ma’rifiy, publitsistik, badiiy-estetik, falsafiy, siyosiy maqsadlarni o’z oldiga qo’ygan sayohatnomalar yaratdilar.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. — T.: Ma’naviyat, 2005. — 256 b. (Haji Muin. Selected works. - T.: Ma’naviyat, 2005. - 256 p.)
2. N.Karimov va boshqalar. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. — T.: O’qituvchi, 1999. — 544 b. (N. Karimov and others. History of 20th century Uzbek literature. - T.: Teacher, 1999. - 544 p.)
3. I.G’afurov. Mangu latofat. —T.: Sharq, 2008. — 460 b. (I. Gafurov. It’s a blessing. - T.: Sharq, 2008. - 460 p.)
4. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. —T.: Ma’naviyat, 2006. — 277 b. (M. Behbudi. Selected works. - T.: Ma’naviyat, 2006. - 277 p.)
5. Azizov M. Erk va ma’rifatchun berdi borini // <https://www.qashqadaryogz.uz/read/erk-va-ma-rifatchun-berdi-borini>. (Azizov M. Erk and enlightenment gave everything// <https://www.qashqadaryogz.uz/read/erk-va-ma-rifatchun-berdi-borini>.)
6. Guminskiy V.M. Puteshestviye // Literaturniy ensiklopedicheskiy slovar. — M.: Sov. Ensiklopediya, 1987. — 416 st. (Guminsky V.M. Puteshestviye // Literary encyclopedic dictionary. - M.: Sov. Encyclopedia, 1987. - 416 p.)
7. Skibina O.M. Tvorchestvo V.L.Kigna-Dedlova: Problematika i poetika spetsialnost 10.01.01. — Russkaya literatura. Dissertatsiya na soiskaniye uchonoy stepeni doktora filologicheskix nauk. Moskovskiy pedagogicheskii gosudarstvennoy universitet. Moskva — 2003. —376 st. (Skibina O.M. Creativity of V.L. - Russian literature. Dissertation on the competition of the academic tape doctor of philological sciences. Moscow Pedagogical State University. Moscow - 2003. -376 p.)